



**MAXSUS TA'LIMGA MUHTOJ BOLALARGA  
INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM SHAROITLARIDA YORDAM  
KO'RSATISHNING G'ARBIY YEVROPA TAJRIBASI**

*Inogamjonova Ziyoda Shuxratovna*

*UNIVERSITY OF MANAGEMENT AND FUTURE TECHNOLOGIES*

*Pedagogika-psixologiya yo'nalishi 2 - bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA:** Maqolada integratsiyalashgan, yani maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun mo'ljallangan inklyuziv ta'lism standartlari, aynan mana shunday ta'lism tizimini G'arbiy Yevropa davlatlarida tashkil etilgani va uning ahamiyati bilan birgalikda, inklyuziv ta'lism tizimini Yevropaning bir nechta davlatlaridagi tajribaviy jarayoni haqida fikr yuritilgan. Ushbu maqola orqali, G'arbiy Yevropaning bir nechta davlari misolida inklyuziv ta'lism taraqqiyot haqida ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lism, korreksiyalash, kompensatsiyalash, maxsus pedagog, inklyuziv sinf, yordamchi o'qituvchi.

**ABSTRACT:** In the article, the integrated, i.e., inclusive education standards for children with special needs, the establishment of such an education system in Western European countries and its importance, together with the experimental process of the inclusive education system in several European countries, are discussed. Through this article, you can learn about the development of inclusive education in several cases of Western Europe.

**Key words:** inclusive education, correction, compensation, special pedagogue, inclusive class, assistant teacher.

**АННОТАЦИЯ:** В статье обсуждаются интегрированные, то есть инклюзивные стандарты образования для детей с особыми потребностями, создание такой системы образования в странах Западной Европы и ее значение, а также экспериментальный процесс системы инклюзивного



образования в ряде европейских стран. Благодаря этой статье вы сможете узнать о развитии инклюзивного образования в ряде случаев в Западной Европе.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, коррекция, компенсация, специальный педагог, инклюзивный класс, помощник учителя.

## KIRISH

Yevropa davlatlarida integratsiyalashgan\inklyuziv ta'lim muammolarini hal qilish, imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish, ko'maklashish va maxsus ta'limni rivojlantirish bo'yicha Yevropa agentligi tomonidan 1999 yilda chop etilgan ma'ruzasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu xujjatda 17ta Yevropa davlarida integratsiya ta'limini tashkil qilish holati borasida fikr yuritiladi. Integratsiyalashgan ta'lim sohasida o'z hohishiga ko'ra qaror qabul kilish tarafdorlari, xorijliklarning ijobiy tajribasiga ishora qiladilar. Ayni paytda ular ko'pincha o'zлari tomondan taklif etilayotgan keskin va jadal choralar (masalalar) g'arbcha yondashuvlarning o'xshashi tarzida qarash mumkin emasligiga e'tibor bermaydilar, chunki ush bu masalalar zarur qonunchilik, iqtisodiy, kadrlar bazalarisiz amalga oshiriladi. Integratsiyaning ilg'or modeli o'ziga xos o'quv joyining oddiy sinfi doiralaridagi yaratuvchanlik, fan o'qituvchisiga qo'shimcha ravishda ikkinchi pedagogni kiritish, infratuzilmaning o'quvchi imkoniyatlariiga moslashish va yana ko'p narsalar, ya'ni "maxsus mini maktab" sinfida o'ziga xos tashkiliy ishlarni ko'zda tutadi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Milliy ma'ruzalarga binoan ko'pchilik Yevropa mamlakatlarida maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar bilan ishlashda maktab o'qituvchilari asosiy rolъ o'ynaydi. Qo'shimcha ta'lim yordami professionallar, asosan maxsus pedagoglar ko'magida ta'minlanadi. Ularning ishini odatda mahalliy ta'lim boshqaruvi organlari tartibga soladi. Daniya va Shvetsiyada maxsus sinf (maktab) o'quvchilari bilan faqatgina maxsus pedagoglar shug'ullanadi. Italiyada bunday o'quvchilar bilan maxsus pedagoglar bilan bir qatorda oddiy pedagoglar ham ishlashi mumkin, ayni paytda ularning bari maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilarning o'qishi uchun mas'ul sanaladilar. Boshqa variantlar ham mumkin. Masalan, Fransiyada Adliya vazirligi qo'l ostidagi xizmat maktab o'quvchilariga yordam ko'rsatadi. Integratsiyalashgan



o'quvchilar mavjud Lyuksemburg maktablarida maktab o'quv dasturlarini bilmasa ham, korreksion pedagogika va maxsus psixologiya sohalarida bilimga ega bo'lgan "assistantlar" ishlaydi. Irlandiyada ijtimoiy xizmatlar maxsus ta'limga muhtoj maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilarga xizmat ko'rsatishda bevosita qatnashadilar. Sog'liqni saqlash bo'yicha hududiy kengashlar tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtiradilar. Integratsiyalashgan o'quvchilarga ko'maklashishni tashkil etish. Internet ma'lumotlari asosida bugungi kunga qadar jahon miqyosida juda ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish borasida amaliy tajribalar olib borilayotganligi ham aniqlandi.

AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya kabi bir qator mamlakatlarda maktab turini tanlash qonun tomonidan belgilanadi, ota-onalar esa ta'lim turini tanlashni yozma ravishda tasdiqlashi, ayrim hollarda asoslab berishlari lozim, deb topilgan.

Avstriyada 1945 yildan boshlab nogiron bolalarni differentsial o'qitish tizimi tashkil etilgan bo'lib, bu ta'lim tizimida barcha turdag'i nuqsonli bolalar o'qitila boshlandi. Ammo 1980 yilga kelib maxsus ehtiyojli bolalarning ota-onalari demokratiya huquqlari uchun kurashib, farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitilishini talab qilib chiqdilar. Folker Ruttening ma'lumotlariga qaraganda "Ayni paytda ixtisoslashtirilgan ta'lim sohasida ishlovchi pedagoglar maxsus ehtiyojli bolalarga segregatsiya, ya'ni maxsus ta'lim berishning afzalliklarini shubha ostiga qo'ya boshladilar. 1983 yilda Avstriya Ta'lim vazirligi inklyuziv ta'lim tizimining modelini tuzish yuzasidan tajriba loyihasi to'g'risida qaror qabul qildi. Bu ta'lim modeli to'rtta turga ajratildi: inklyuziv sinflar, hamkorlik qiluvchi sinflar, kichik komplektli maxsus sinflar, yordamchi o'qituvchilar.

Flamandiya jamoasida integratsiyalashgan ta'limning muvaffaqiyati uchun maktab o'qituvchisi asosiy javobgar shaxs hisoblanadi. Maxsus pedagog resurs pedagog xizmatini bajaradi fan o'qituvchilarini kasbga oid axborot bilan ta'minlab, ular o'rtaida bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. SHuni tan olish kerakki, fan o'qituvchilari o'zlarining kundalik pedagogik faoliyatida assistant tomonidan tayyorlangan dasturdan doim ham foydalanavermaydilar.



Integratsiyalashgan o'quvchilarga ko'maklashishning eng ko'p tarqalgan turi – yaqinda joylashgan maxsus mакtabdan maxsus o'qituvchi yoki boshqa zarur professionalni jalb qilishdir. Yordam berishning bu turi “integratsiyalashgan ta'lism” sxemasi ichida mumkin. Shunday qilib, maxsus ta'limda jamlangan tajriba va maxsus bilimlar oddiy sinflarga beriladi.

## XULOSALAR

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim strategiyasini rivojlantirish ko'p muddatli vaqt ni talab qiladi. Bu ta'limni rivojlantirish uzliksizlikni va uni tadbiq qilishga bosqichma – bosqich kompleks yondashuvni amalga oshirish kerak. Inklyuzivning muvaffaqiyati, muttaxasislarning fikri bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalarni qaerga borib o'qishiga va inklyuziv ta'lim dasturiga bog'liq. Eng avvalo inklyuziv ta'lim davlat ishi bo'lishi kerak. chunki ta'lim olishga imkoniyati bo'limgan aloxida extiyojli shaxslar iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayondan tushib qoladilar.

## ADABIYOTLAR:

1. 1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига руҳий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.



7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.